



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 12-dekabr VII-16-126-11-163-K/25 Farg‘ona tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda 2025-yilning yanvar-oktabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimi X.Inomovning hisoboti to‘g‘risida

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qaroriga Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, ishga solinmagan imkoniyatlardan tuliq va samarali foydalanish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash, aholining munosib turmush darajasi va bandligini ta’minlash bo‘yicha yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

I. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha:

1.1. Joriy yilning 1-noyabr holatigatumanda ishsizlik darajasi 5,0 foizni va kambag‘allik darajasi 5,1 foizga pasaygan bo‘lsa, yil yakuni bilan mazkur ko‘rsatkichlarni mos ravishda o‘rtacha 4,5-4 foizgacha (minimum darajaga) tushirish belgilangan. Aholi bandligini ta’minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish bo‘yicha yanvar-oktyabr oylarida 23 769 nafar aholini daromadli mehnat bilan band qilish belgilangan bo‘lib, amalda bu ko‘rsatkich 26 452 nafarni tashkil etdi va reja ijrosi 111,3 foizga bajarildi. *Xususan, investitsiya loyihalari hisobiga 3866 nafar (121,0 foiz), aholini doimiy ishga joylashtirish va tadbirkorlikka jalb etish hisobiga 13267 nafar (117,2 foiz), qishloq xo‘jaligida 7374 nafar (100,1 foiz), qurilish yo‘nalishida 1117 nafar(100,1 foiz) aholi doimiy va mavsumiy ishlarda band qilindi.*

I.2. Davlatimiz rahbarining 2024 yil 23 sentyabrdagi PF-143-sonli Farmoni hamda va shu kundagi PQ-330-sonli qarorlari asosida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturiga asosan joriy yilning 10-oyi davomida 1 585 ta oilalarni (7256 nafar aholi) kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha 5 150 ta xizmatlar ko‘rsatildi. Bunda, 2 626 nafari doimiy ishga joylashtirildi, 505 nafariga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratildi, 1 420 nafari tadbirkorlikka jalb qilingan va 599 nafari kasb-hunarga o‘qitilgan. Buning natijasi 1860 ta (a‘zolari 8,3 ming nafar) oila kambag‘allikdan chiqarilib, kambag‘al oilalar soni 2422 tani (a‘zolari 12,7 ming nafar), kambag‘allik darajasi 5,1 foizni tashkil etdi. Joriy yil yakuniga qadar kambag‘allik darajasini 5,0 foizgacha kamaytiriladi. (Tumanda 2025 yil boshida kambag‘allik darajasi 8,7 foizni, kambag‘al oilalar soni 4,2 mingtani va oila a‘zolar 19,7 ming nafarni tashkil etgan).

I.3. Farg‘ona tumanida ham joriy yilda bir qator chora-tadbirlar belgilanib olindi. Jumladan, 2025-yil yanvar-oktyabr oylarida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, hususan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1445,9 mlrd.so‘mga yoki 108,6 foizga, xizmatlar hajmi 1223,0 mlrd.so‘mga yoki 113,7 foizga, chakana savdo hajmi 700,2 mlrd.so‘mga yoki 107,6 foizga, qurilish ishlari hajmi 401,4 mlrd.so‘mga yoki 116,3 foizga bajarishga erishildi.

I.4. Tumanda 4 ta tajribalar doirasida, hususan:

“Sayxunobod” tajribasi bo‘yicha 71 ta mahallada yanvar-oktyabr oylarida jami 2721 ta mikroloyihani amalga oshirish belgilangan bo‘lib, amalda joriy yilning 10 oyi davomida 2 725 ta mikroloyihani ishga tushirilib, 5 347 tayangi ish o‘rinlari yaratildi.

-Uychi tajribasi asosida joriy yilning 10 oyi davomida 42 ta uchrashuvlar o‘tkazilishi natijasida 220 nafar aholi bandligi ta‘minlandi.

-“Zarbdor” tajribasi bo‘yicha - qiymati 111,6 mlrd. so‘mlik (tashabbuskor mablag‘lari 96,4 mlrd.so‘m, bank krediti 2,5 mlrd.so‘m, horijiy investitsiya 1,0 mln. dollar, 2,8 mlrd.so‘m byudjet mablag‘lari) 5 ta (sanoat-1 ta, xizmat ko‘r.-3 ta, qishloq xo‘j.-1ta) loyihalarni amalga oshirish va 465 ta ish o‘rni yaratish bo‘yicha dastur ishlab chiqilgan. Shu bilan birga Tasdiqlangan manzilli ro‘yhatga ko‘ra Respublika byudjetidan ajratilgan 2,8 mlrd so‘m miqdorida mablag‘lar sarflanadi.

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylari davomida ushbu loyihalarining 2 tasida, hususan :

-“Do‘stlik” MFY hududida joylashgan tuman hokimligi zaxirasidagi 200 gektar bo‘sh yer maydoni suvsizlik sababli foydalanilmasdan qarovsiz turibdi. Ushbu yer maydonlari o‘zlashtirish uchun xududda 6 ta quduq qazish rejalashtirilib, bugungi kunda “Farg‘ona Umumtadbir Qurloyixa” MChJ

tomonidan loyihalash ishlari yakuniga yetkazilgan. Xududda sinov tariqasida 1 dona quduq qazish ishlari yakuniga yetkazildi. Xozirgi kunda tik quduq qazish ishlarini amalga oshirish uchun pudratchini aniqlash ishlari yakuniga yetkazildi. bo'yicha "Shaffof" platformasiga kiritildi. Pudratchilikni amalga oshirish "Shaffof" platformasi orqali "Obi xayot qurilish injinering" MChJ korxonasi tomonidan yutildi. Bugungi kunda "Obi xayot qurilish injinering" MChJ korxonasi tomonida tik quduq qazish ishlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda "Obi xayot qurilish injinering" MChJ korxonasiga 1 836,9 mln.so'm pul mablag'lari moliyalashtirildi.

- "Chimyon" MFY hududida joylashgan ko'p yillardan buyon foydalanilmayotgan sobiq "Chimyon MTP" (mashinasozlik va traktor parki) maydoni oziq-ovqat mahsulotlarini sotishga ixtisoslashgan bozor xamda 1000 tonna sig'imga ega muzlatgichli omborxona tashkil etish rejalashtirilgan. Bugungi kunda ushbu loyixada qurilish ta'mirlash ishlarini yakuniga yetkazish arafasida turibdi. Ushbu loyixani amalga oshirish uchun barqaror elektr ta'minoti bilan ta'minlash ishlari yakunlandi. "Valley agrotechnics" MChJ tomonidan 1000 tonna sig'imga ega muzlatgichli omborxona qurib bitkazildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini sotishga ixtisoslashgan bozorda pardozlash ishlari yakunlandi. Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun "Fergana avtomat raschot" MChJ ga 800,4 mln.so'm pul mablag'lari moliyalashtirildi.

G'ijduvon tajribasi asosida tumanda joriy yilda 9 ta mahallada loyihalar amalga oshirilishi belgilanib, mazkur mahallalarda 205 ta ish o'rinlar yaratuvchi 9 ta loyiha shakllantirilgan. Joriy yilning 10 oyi davomida qiymati 10,9 mlrd.so'mlik (*shundan kredit mablag'lari hisobidan 3,9 mlrd.so'm, loyiha tashabbuskorlarining o'z mablag'lari hisobidan 7,0 mlrd.so'm*) jami 8 ta loyihalar ishga tushirilib, 195 ta yangi ish o'rni yaratildi.

I.5. Bundan tashqari Tadbirkorlik dasturlari doirasida joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 3 213 ta talabgorlarga 134,4 mlrd. so'm kredit mablag'lari ajratildi. Jumladan:

- "*Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash*" dasturi bo'yicha 235 ta talabgorlarga 28,1 mlrd. so'm;

- "*Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi*" doirasida 875 ta talabgorlarga 10,2 mlrd.so'm;

- "*Biznesga birinchi qadam*" kredit doirasida 893 ta talabgorlarga 23,5 mlrd.so'm;

- "Mahalla loyiha" dasturi doirasida 1210 ta talabgorlarga 72,3 mlrd. kredit mablag'lari ajratildi.

I.6. Shuningdek 1444 nafar fuqarolar (*shundan 914 nafari ayollar, 387 nafari yoshlar*) mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb xunarga o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda, shundan 810 nafar fuqarolar kasb-hunarga o'qitish jarayonlari yakunlandi hamda 720 nafar fuqarolarning bandligini ta'minlashga erishildi.

II. Investitsiya va eksport bo'yicha:

2025-yilda umumiy qiymati 207,3 mln. dollar bo'lgan 15 ta loyihalar doirasida 127,0 mln.dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlar o'zlashtirilishi belgilangan. Shundan, 3-chorak yakuniga 88,6 mln.dollar xorijiy investitsiyalar o'zlashtirishi belgilangan bo'lib, amalda 89,5 mln. dollar investitsiyalar o'zlashtirilib reja ko'rsatkichi 100,9 foizga bajarildi.

Shuningdek, joriy yilda hududiy investitsiya dasturlari doirasida qiymati 51,5 mln. dollar bo'lgan 33 ta loyihalarni amalga oshirish hisobiga 4 536 ta ish o'rinlarini yaratish belgilangan bo'lib, 27.11.2025 holatiga qiymati 49 mln. dollar bo'lgan 50 ta loyihalarni ishga tushirildi va 5890 ta yangi ish o'rinlarini yaratildi.

Misol uchun: Farg'ona tumanida Tailand bilan "Bahodir log'on teksil" MChJ QK tomonidan qiymati 20,0 mln. doll. bo'lgan turizm kompleksini tashkil etish loyihasi doirasida 12,0 mln. dollar, "Bahodir log'on tekstil" MChJ QK tomonidan Un ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi doirasida 10,0 mln dollar" Sanoat Energetika Guruhi" MChJ QK tomonidan 23,6 mln dollar xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylari uchun 33,2 mln. dollar prognoz ko'rsatkichlari belgilanib, o'tgan 11 oyda amalda jami 19,2 mln. dollar *eksport amalga* oshirildi. Shundan, *qishloq xo'jaligi* mahsuloti 13,7 mln. dollar, *sanoat* mahsuloti 5,5 mln. dollarni tashkil etdi.

Misol uchun: "Royal thay Branch" MChJ tomonidan 1,3 mln. dollarlik ip kalava mahsulotlari, "Baht Textile Andijon" MChJ tomonidan 3,2 mln. dollarlik to'qimachilik mahsulotlari hamda "Yusufbek Building" MChJ tomonidan 2,1 mln. dollarlik "Fermi 777" MChJ 4,2 mln. dollarlik tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

III. Qurilish yo'nalishi bo'yicha:

III.1. Tumandagi 7 ta og'ir MFYlarda kommunikatsiya tizimini yaxshilash bo'yicha:

Davlatimiz Rahbarining PQ-330-sonli qarori bilan 7 ta og'ir mahallalarda tomorqa yerlarini sug'orishni yaxshilash, elektr energiyasi barqaror yetkazib

berilishini ta'minlash, internet sifatini oshirish, ichki yo'llarni ta'mirlash maqsadlari uchun jami 21,0 mlrd.so'm mablag' ajratilmoqda. Jumladan,

- Tomorqa yerlarini sug'orish tazimi yaxshilash buyicha 7 ta mahallalarda– 10 ta quduq qazish uchun 4.850 mlrd.so'm mablag'lar ajratildi.

Hozirda ushbu og'ir toifadagi mahallalarda tomorqa yerlarini sug'orishni yaxshilash bo'yicha 4.078 mlrd.so'm mablag' xisobiga 7 ta mahallaga 10 ta sug'orish qudug'i qurilib, qurilish montaj ishlari yakuniga yetkazildi.

- Elektr ta'minoti buyicha - 7 ta ob'ektda 5,233 mlrd.so'm mablag' sarflanishi hisob-kitob qilingan. Jumladan, 11 ta transformator o'rnatish (1,320 mlrd.so'm), 18,5 km elektr tarmog'i tortish (2,960 mlrd.so'm) hamda 686 ta tayanchlarni almashtirish (953 mln.so'm) orqali 7170 ta xonadonni elektr ta'minoti yaxshilanmoqda.

Hozirda ushbu dasturga asosan 19,1 km masofada elektr uzatish tarmog'i, 11 dona transformator punkti va 686 dona temir-beton tayanchlar o'rnatilib qurilish montaj ishlari 100% ga bajarilib yakuniga yetkazildi.

- Ichki yo'llar bo'yicha - 7 ta MFY da 23,0 km yo'llarni asfaltlashtirish (10,917 mlrd.so'm) hisobiga 819 ta xonadonni yo'llardan foydalanish sharoiti yaxshilanadi.

Birdamlik MFY hududidagi ichki ko'chalarini 500 metr qismida shag'allashtirish ishlari olib borilib qolgan ishlar davom etmoqda.

- Internet buyicha -7170 ta xonadonni optik tolali internet tarmog'i tortish bo'yicha tegishli choralar olib borilmoqda.
- Ushbu 7 ta og'ir toifadagi mahallalarga optik tolali internet tarmog'i tortish bo'yicha 30 ta 1/4 , 95 ta 1/8 splitter qurilmasi o'rnatildi, 32 km 8 tolali, 10,7 km 12 tolali, 0,7 km 16 tolali, 7,9 km 24 tolali hamda 3,5 km 48 tolali magistral kabellar tortildi.

III.2. Aholi punktlari ko'chalar holatini yaxshilash bo'yicha:

Farg'ona tumanida jami bo'lib 71 ta mahalla fuqarolar yig'inlari, 437 ta ko'chalar, 1207,0 km ichki yo'llar mavjud. Shundan 740,9 km ichki yo'llar asfaltlashtirilgan, 348 km ichki yo'llar shag'allashtirilgan, 41,3 km ichki yo'llar tuproq yo'l hisoblanadi.

2025-yilning yanvar-oktyabr oylari mobaynida 38,2 km ichki yo'llar asfaltlashtirildi, 8270 km qismi tuproq qoplamadan shag'al qoplamaga yotkazildi.

III.3. Ichimlik suvi bo'yicha

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida 712 ta aholi xonadonlari ichimlik suvi tarmog'iga (98,2%) ulandi, 7,2 km ichimlik suvi tarmog'ini ta'mirlandi, 11 ta suv minoralari ta'mirlanib, aholi xonadonlari iste'molchilar soni 28 712 tani (82,5%)tashkil etmoqda.

III.4. Elektr tarmoqlari bo'yicha

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylari davomida 70 dona transformator punkti, 127,0 km elektr uzatish tarmoqlari mukammal va 207 dona transformator punkti hamda 382,0 km elektr uzatish tarmoqlari joriy ta'mirlandi.

III.5. Gazlashtirish bo'yicha:

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylari davomida 6,5 km gaz quvirlari ta'mirlandi 8 dona GRP lar yangidan qurildi va 6 dona GRP lar ta'mirlandi hamda 1,2 km yangi tarmoqlar tortildi, shu bilan birga 2025-yil 15-sentyabr holatiga ko'ra suyuq gazdan foydalanuvchi jami iste'molchilar soni 22 173 ta aholi xonadonlari bo'lib, ulardan 17 606 ta shaxsiy 9 956 ta shartnoma asosida vaqtincha foydalanishdagi balonlardir.

9 oylik (yanvar-oktyabr) umumiy ta'minot rejasi 3041,0 tonna bo'lib, amalda 3047,1 tonna (100,2%) ta'minlangan. Yillik gaz fondi 3650,0 tonna.

III.6. Ko'p kvartirali uy-joylar qurilishi bo'yicha :

Joriy yilning 10 oyi davomida 2 ta 5 qavatli 50 xonadonli 6 ta 7 qavatli 56 xonadonli uy-joylar hozirgi kunda qurilish montaj ishlari olib borilmoqda, bundan tashqari jami 13 ta 582 xonadonli ko'p qavatli uy-joylarning qurilish ishlari yakunlanib foydalanishga qabul qilindi.

Farg'ona tumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-iyundagi "Mahallalarni obodonlashtirish, ko'klamzorlashtirish va qiyofasini tubdan yaxshilashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-234-son qarori hamda Farg'ona viloyat hokimining 2024-yil 2-avgust kungi 412-11-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, tumanning Yangi asr mahalla fuqarolar yig'ini hududida mahalla obodligi bilan shug'ullanuvchi "Mahalla servis kompaniyalari"ga yer maydoni ajratib berilgan bo'lib, xozirgi kunda qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

IV. Ijtimoiy soha va xotin qizlar yo'nalishi bo'yicha:

IV.1. Nogironligi bo'lgan shaxslarni bandligini ta'minlash orqali ularni ijtimoiylashtirish bo'yicha yanvar-oktyabr oylarida 422 nafar nogiron shaxslarni bandligini ta'minlash orqali ijtimoiylashtirishga erishildi.

IV.2. Tibbiyot muassasalarini zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash bo'yicha joriy yilning 8 oyi davomida 6 659 mlrd. so'mlik tibbiy asbob-anjomlar (2 dona Raqamli rengen apparat, fizioterapiya apparatlari tug'rukxona bo'limlari uchun 9 turdagi jaxon standartiga javob beradigon tibbiy jihozlar) bilan ta'minlandi.

IV.3. 2025-yilning yanvar- oktyabr oylarida tumanda maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilar qamrovini 87,1 foizga bajarilib, 17 368 nafar 3-7 yoshli bolalar qamrab olindi.

IV.3. "Sayxunobod tajribasi" asosida joriy yilning 10-oy davomida "Ayollar daftari"dagi kasb-hunarga o'qish istagini bildirgan 9 281 nafar xotin-qizlarni bandligini ta'minlandi, jumladan:

- 670 nafarini xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida;
- 919 nafarini kasb-hunarga o'qitish markazlarida;

-64 nafarini “Hunarmand uyushmasi” tomonidan kasb-hunarga o‘qitish;

-230 nafarini Lider tadbirkorlar tomonidan o‘qitiladigan qisqa o‘quv kurslarida o‘qitilinishi ta’minlanib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha bandligi ta’minlanib daromad topishga ko‘maklashildi.

Shu bilan birgajimoiy yordamga muxtoj I-II guruh nogironi bo‘lgan xotin-qizlar 335 nafariga bir martalik moddiy yordam ko‘rsatildi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda 2025-yilning yanvar-oktabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimi X.Inomovning hisoboti to‘g‘risida”gi tuman hokimi hisobotini eshitib va yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda 2025-yilning yanvar-oktabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimi X.Inomovning hisoboti to‘g‘risida”gi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona tumani hokimining o‘rinbosarlariga:

tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida “mahallalar yettiligi” faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash va nazoratni kuchaytirish;

“mahalla yettiligi” vakillari ishtirokida aholi bilan doimiy muloqotlarni tashkil etib borish;

“mahalla yettiligi” bilan birgalikda “Saxovat va ko‘mak”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” ro‘yxatida turgan fuqarolarning muammolarini o‘z vaqtida hal etish choralarini ko‘rish;

fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarni o‘z vaqtida o‘rganib chiqish, aniqlangan muammolarni qonuniy hal etish choralarini ko‘rish;

3. Farg‘ona tumani hokimining birinchi o‘rinbosariga:

tuman hududida “Sayxunobod”, “Uychi”, “G‘ijduvon”, “Zarbdor” tajribalari doirasida tegishli ishlarni amalga oshirilishini jadallashtirish va samaradorligini oshirish, aholi tomonidan tomorqa va uy xo‘jaliklardagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish orqali daromadlarini oshirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni o‘tkazilishini ta’minlash;

aholi muammolarini samarali hal etish, ma'naviy muhitni saqlash, ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliq inspektori va ijtimoiy xodimning o'z vazifalarini bajarishda hamkorligini ta'minlash hamda hamkorlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida mahalla raislarini mas'ul etib belgilash;

aholini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish, kambag'al oilalarga ajratilayotgan budjet va boshqa mablag'larni maqsadli va manzilli yo'naltirish va bu borada nazoratni kuchaytirish;

ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash, kredit ajratish masalalarida fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mahallalarda bandligi ta'minlanmagan yoshlar va xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka jalb etish orqali bandligini ta'minlash choralari ko'rish; aholini tomorqadan unumli foydalanish, oilaviy tadbirkorlik, kichik sanoat va xizmatlarni yo'lga qo'yish orqali, aholini daromadli qilish choralari ko'rishga;

4. Farg'ona tumani hokimi o'rinbosari I.Toshpo'latovga:

aholini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish, kambag'al oilalarga ajratilayotgan byudjet va boshqa mablag'larni maqsadli va manzilli yo'naltirish va bu borada nazoratni kuchaytirish;

qarovsiz, nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash;

sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni saqlash, milliy qadriyatlar, urf odatlar va an'analarni targ'ib qilish, ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini yanada mustahkamlash maqsadida mas'ullar bilan birgalikda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va sport musobaqalarini o'tkazilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Farg'ona tumani hokimining o'rinbosari M.Qodirxonovga:

"Yashil makon" umummilliy harakati doirasida o'tkaziladigan tadbirlarga fuqarolarni keng jalb qilish orqali atrof-muhit tozaligi hamda ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish choralari ko'rish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi



**INOMOV
XAMIDULLO
TADJIYEVICH**